06«9»2022 yil. **257-11-153-OB/2022-son**

# MAXSULOT YETKAZIB BERISH SHARTNOMASI №41451

Ushbu shartnoma *«Buyurtmachi»* deb ataluvchi Beshariq tumani Obodonlashtirish boshqarmasi va uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi boshqarma boshlig'i N. Nasipov bir tomondan va *«Yetkazib beruvchi»* deb ataluvchi «SHERXON INVEST QURILISH ONE» MCHJ va uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi raxbari SH.Muxammedov ikkinchi tomondan kelishuv asosida amaldagi qonunlarga muvofiq tuzildi.

## I. SHARTNOMANING MAVZUSI

1.1. *«Yetkazib beruvchi»* mazkur shartnoma shartlariga muvofiq *«Buyurtmachi»*ning talablaridan kelib chiqib,"Fargona viloyati Beshariq tumani «Qiyali MFY SHodaqoziq massivida «Yashil makon» dasturi buyicha 600 gektar yer maydonini sugorish uchun 2 dona suv qudug`i kavlash ishlari" xizmatini yetkazib beradi.

## II. SHARTNOMANING BAXOSI VA XISOB KITOB TARTIBI

komissiyasining qarori bilan tasdiqlangan maxsulotlar qiymati (barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan xolda)ga asosan joriy narxlarda shartnomaning umumiy narxi **499 500 000 (To'rt yuz to'qson to'qqiz million besh yuz ming)** QQSli so'mni tashkil etadi.

2.2. SHartnoma tomonlar o'rtasida imzolanib, tegishli G'aznachilik bo'limida ro'yxatga olingandan so'ng 15 bank ish kunida *«Buyurtmachi» y*etkazib beriladigan asosiy vositalar umumiy qiymatining 30 foizini oldindan ya'ni, avans tariqasida *«yetkazib beruvchi»*ning xisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.3. Asosiy vositalar uchun to'lovlarning qolgan 70 foizi, *«yetkazib beruvchi»* tomonidan topshirilgan xisob-varaq fakturalar asosida 30 bank ish kunida o'tkazib beradi.

2.4. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlar *«Buyurtmachi»* tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

## III. TOMONLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. *«Yetkazib beruvchi»*ning majburiyatlari

SHartnoma imzolangandan so'ng yetkazib beriladigan asosiy vositalar*«Buyurtmachi»*dan xisob-varaq fakturaga asosan qabul qilib oladi.

Mazkur shartnomada ilova qilinadigan to'lovlar jadvaliga muvofiq avans to'lovi amalga oshirilgandan boshlab 5 kun muddat ichida asosiy vositalarni yetkazib berishga kirishadi.

Barcha ishlarni buyurtmachi talablariga muvofik, mazkur shartnomada nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari bilan bajarish hamda *«Buyurtmachi»*ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi.

3.2. *«Yetkazib beruvchi»*ning xuquqlari

Maxsulot uchun oldindan avans xaq to'lanishini va ishni bajarib topshirgandan so'ng to'la xajmda xisob kitob qilinishini talab qilish;

Maxsulotni qabul qilib olish asossiz ravishda rad etilishi natijasida etkazilgan zararni qoplanishini talab qilish;

3.3. *«Buyurtmachi»*ning majburiyatlari

Tasdiqlangan talablar bo'yicha maxsulotlarni qabul qilib olish;

Sotib olingan maxsulotlar uchun o'z vaqtida xaq to'lash;

3.4. *«Buyurtmachi»*ning xuquqlari

«Yetkazib beruvchi»dan amaldagi davlat standartlari va boshqa me'yoriy xujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Kamchiliklarni bepul bartaraf etilishi yoki kamchiliklarni boshqa shaxs tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplanishini talab qilish;

«Yetkazib beruvchi»dan shartnomada kursatilgan maxsulotlarni qabul qilish komissiyasi ishtirokida sifatini kurib olish;

«Yetkazib beruvchi» tomonidan yetkazib berilgan maxsulotlarni shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofikligini nazorat qilish.

## IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarmasa majburiyatni bajarmagan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'laydi;

4.2. «Yetkazib beruvchi» maxsulotni o'z vaqtida topshirmaganligi uchun «Buyurtmachi»ga xar bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma majburiyatlari bajarilmagan qismining 0,5 % miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penya summasi bajarilmagan majburiyatlar bahosining 50 % idan oshmasligi kerak.

4.3. Aniqlangan nuqson va kamchiliklar «Yetkazib beruvchi» tomonidan o'z vaqtida bartaraf qilinmasa "Buyurtmachi" tomonidan to'lovlar to'xtatiladi. Lozim darajada bajarilmagan ishlarning 20 % i miqdorida «Yetkazib beruvchi» jarima to'laydi.

4.4. Yetkazib berilgan maxsulotlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan o'z vaqtida xaq to'lanmasa, xar bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 %i miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penyalarning umumiy summasi kechiktirilgan to'lovlarning 50 %i miqdoridan ortmasligi kerak.

4.5. To'lanadigan penya va jarimalar shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni ikkinchi tarafga ana shu majburiyatlarni bajarmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplash javobgarligidan ozod etmaydi.

## V. FORS MAJOR XOLATLAR

5.1 Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va bu xolatlar shartnoma shartlarini bajarilishiga bevosita ta'sir etsa tomonlarning javobgarlikdan ozod etilishi Qonun xujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

## VI. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH, BEKOR QILISH VA NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI

6.1. Mazkur shartnoma belgilangan shaklda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizo va kelishmovchiliklar o'zaro muxokama yo'llari bilan xal etiladi. Agarda o'zaro muxokama yo'li bilan xal etish imkoni bo'lmasa Qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Iqtisodiy sud orqali xal etiladi.

## VII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATLARI

7.1. SHartnoma tomonlar imzolab, xududiy G‘aznachilik bo‘limida ro‘yxatga olingan kundan kuchga kirib, «31» dekabr 2022 yilgacha amal qiladi.

7.2. SHartnoma 2 nusxada tuzilib, ikkala nusxasi ham xuquqiy jixatdan teng kuchli hisoblanadi.

## VIII. TOMONLARNING REKVIZITLARI

| **“Yetkazib beruvchi”** | **“Buyurtmachi”** |
|---|---|
| «SHERXON INVEST QURILISH ONE» MCHJ | Beshariq tumani Obodonlashtirish boshqarmasi |
| Beshariq tumani Sobirtepa qishlog‘i | Beshariq shahri Oltin Vodiy ko`chasi №114 uy |
| x/r 20208000105271363001<br>INN 307679454 MFO 00797 | x/r 100022860302157049805110001<br>INN 206994051 MFO 00014 |
| OKOD | OKOD 70210 |
| Xalq banki Beshariq tumani filiali | Markaziy bank Toshkent XKKMM |

Raxbar : ________________ **SH.Muxammedov** Raxbar : ________________ **N. Nasipov**

O'ZBEKISTON RES. FARG'ONA VIL. BESHARIQ TUMANI «SHERXON INVEST QURILISH ONE» MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI

| | Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.<br>Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang. | |
|---|---|---|
| | Imzolovchi F.I.SH. | NOSIRJON NASIPOV QOSIMOVICH |
| | Imzolangan sana | 31 авг 2022 15:47 |
| | Hujjat kodi | **FO4314381768** |
| | Hulosa kodi | **WG7547286020** |

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
FARG'ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI
BESHARIQ TUMAN ADLIYA BO'LIMI
YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

150300, Beshariq tumani, Oltin vodiy ko'chasi, 46-uy
Tel.:(998 73) 612-21-19, el. pochta: beshariq-t-yurmarkaz@adliya.uz


**30.08.2022 yil**

**Beshariq tuman**
**Obodonlashtirish boshqarmasiga**

**XULOSA**
(Obodonlashtirish boshqarmasining
41451-sonli shartnoma loyihasiga)

**1.Loyihaning turi:** Shartnoma.

**2.Loyhaning nomi:** "Mahsulot yetkazib berish to'g'risidagi"gi shartnoma.

**3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:** Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022 yil 29 avgust kuni ishlab chiqilib, shu kuni markazga taqdim qilingan.

**4.Loyiha bo'yicha taklif:** Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasi hamda «SHERXON INVEST QURILISH ONE» MCHJ o'rtasida Farg`ona viloyat Beshariq tuman "Qiyali" MFY Shodaqoziq qishlog`i hududida 600 gektar er maydonini sug'orish uchun 2 dona suv qudug'ini qazish to'g'risidagi 499 500 000.00 (To`rt yuz to`qson to`qqiz million besh yuz ming) so'mlik shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiqligi mazmunan o'rganib chiqildi.

Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyayining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuning 10-moddasi (Xo'jalik shartnomasiga nisbatan qoyiladigan talablar)ga muvofiq ishlab chiqilgan.

Uzbekiston Respublikasining 2021 yil 22-apreldagi" Davlat xaridlari tugrisida"gi 684-sonli Qonuni xamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 26 mayda № 3016 son bilan ruyhatdan o'tkazilgan "Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi tugrisidagi" nizom va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 02-iyuldagi PQ-5171-sonli Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir kushimcha chora tadbirlar tugrisidagi karorini ijrosini ta'minlash maksadida Respublika Tovar hom-ashyo birjasining xarid.uz saytidagi boshkarmaning shaxsiy kabineti orkali № 139984-lot raqami bilan 26.08.2022 yil kuni e'lon joylashtirilgan.

Shartnoma loyihasiga Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasining 2022 yil 18 iyun kungi 2022 yilda ajratilgan mablag'lardan oqilona va samarali foydalanish hamda tovarlar, ish, xizmatlarni bajarish maqsadidagi tanlov komissiyasining yigilish bayoni, № 139984-lot raqamli e'lon bo'yicha takliflar,

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, ҳужжат коди: WG75472860020

bajaruvchilarning tadbirkorlik Guvohnoma, ustavi va Farg'ona viloyati Beshariq tumani hokimining 2022 yil 10 may kungi №95-11-153-F/22 sonli farmoyishi ilova qilingan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan oʻtkazish natijalariga koʻra:

**XULOSA**

Yuqoridagilarga asosan, Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan suv minorasi inshoatini etkazib berish to'g'risida № 41451-sonli shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiq hisoblanadi.

**Markaz bosh yuriskonsulti** **O.Boltaboyev**

“ТАСДИҚЛАЙМАН”
**Бешариқ тумани**
**Ободонлаштириш бошкармаси**
**бошлиғи**
**(комиссия раиси)**
______________ **Н.Насипов**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар махкамасининг 2022 йил 20 майдаги Давлат харидларини амалга ошириш билан боғлиқ тартиб-таомилларни ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш хақидаги қарори ва Давлат харидлари тўғрисидаги қонуннинг 62-моддасининг 7-хатбошисига кўра Бешариқ тумани Ободонлаштириш бошкармаси томонидан **“Фаргона вилояти Бешарик тумани «Кияли МФЙ Шодакозик массивида «Яшил макон» дастури буйича 600 гектар ер майдонини сугориш учун 2 дона сув кудуги кавлаш ишлари”** буйича 22110012139984-сонли лот юзасидан танлов комиссиясининг мухокама натижалари тугрисида

## 13-СОНЛИ МАЖЛИС БАЁНИ

2022 йил 06 сентябрь соат 15:18 Бешариқ шаҳри

Танлов комиссияси иштирокчилари:

| | | |
|---|---|---|
| Комиссия раиси: | Рахбар | Н. Насипов |
| Комиссия котиби: | Бош хисобчи | Б. Пирназаров |
| Комиссия аъзоси: | Техника хавфсизлиги мухандиси | Х. Дадабоев |
| Комиссия аъзоси: | Йул техниги | А. Пулатов |
| Комиссия аъзоси: | Омбор мудири | Д. Фаттоев |
| Комиссия аъзоси: | Булим бошлиги | Л. Юсуфжонов |

**Йигилиш кун тартибидаги масала:**

**“Фаргона вилояти Бешарик тумани «Кияли МФЙ Шодакозик массивида «Яшил макон» дастури буйича 600 гектар ер майдонини сугориш учун 2 дона сув кудуги кавлаш ишлари”** объекти буйича УзРТСБ Etender.uzex.uz порталида 19.08.2022й. 20:10 дан 26.08.2022й. 20:39 гача бўлган вақтда жойлаштирилган. Танловда 2 (икки) нафар иштирокчи қатнашди булар:

1. SHERXON INVEST QURILISH ONE MCHJ;
2. MR JAVOHIR 1995 MChJ

26.08.2022 йил соат 20:39 да танлов комиссияси аъзолари томонидан SHERXON INVEST QURILISH ONE MCHJ ғолиб деб топилди ва бу хакда электрон баённома расмийлаштирилди хамда шу вактда 2 иш кунига мухокамага жойлаштирилди. Шу 2 иш куни давомида хеч қандай эътирозлар келиб тушмади ва махсус комиссия қарори буйича голиб билан шартнома тузишга қарор қилинди.

| | | |
|---|---|---|
| Комиссия раиси: | ________ | Н. Насипов |
| Комиссия аъзоси: | ________ | Х. Дадабоев |
| Комиссия аъзоси: | ________ | А. Пулатов |
| Комиссия аъзоси: | ________ | Д. Фаттоев |
| Комиссия аъзоси: | ________ | Л. Юсуфжонов |

**«ТАСДИКЛАЙМАН»**

**Бешарик тумани хоким уринбосари**

**_____________И.Эшматов**

**«____» ___________2022й**

КУРИЛИШНИНГ ТИТУЛ РУЙХАТИ

1-Булим. Курилиш буйича асосий маълумотлар

| | |
|---|---|
| 1. Номи ва жойлашуви | Бешарик тумани «Кияли» МФЙ Шодакозик массивида «Яшил макон» дастури буйича 600 гектар ер майдонини сугориш учун 2 дона сув кудуги кавлаш ишлари |
| 2. Инвестор | |
| 3. Буюртмачи | Бешарик тумани Ободонлаштириш бошкармаси |
| 4. Ишлаб чикарувчи | |
| 4.1. ТЭО | |
| 4.2. ЛСХ ва / еки ТД | ООО “FOZILJON PROJECTS BUILDING” |
| 4.3. Экспертиза | «SHAHARSOZLIK HUJJATLAI EKSPERTIZASI» DUK |
| 5. Бош пудратчи | SHERXON INVEST QURILISH ONE MCHJ |
| 6. Молиялаштириш манбаи | Давлат бюджетлари маблаглари хисобидан |
| 7. Курилишнинг бошланиш ва тугаш муддатлари | 2022-2022 |
| 8. Курилиш асосий курсаткичлари<br>Куввати<br>Асосий фонд<br>Капитал куйилмалар<br>Курилиш – монтаж ишлари<br>Ускуна ва инвентарлар<br>Бошка иш ва хизматлар<br>Шу жумладан буюртмачи харажатлари | ЛСХ буйича<br><br>500 000 000 сум<br>499 500 000 сум<br>499 500 000 сум |

2-Булим. 2022 йил прогнози кварталлар буйича таксимоти

| | | Жумладан кварталлар буйича | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | Жаъми йил буйича | I | II | III | IV |
| Асосий фондлар | 500 000 000 | | | 500 000 000 | |
| Капитал куйилмалар | 499 500 000 | | | 499 500 000 | |
| Курилиш – монтаж ишлари | 499 500 000 | | | 499 500 000 | |
| Ускуна ва инвентарлар | | | | | |
| Бошка иш ва хизматлар | | | | | |
| Шу жумладан буюртмачи харажатлари | | | | | |

Бешарик тумани
Ободонлаштириш бошкармаси бошлиги Н. Насипов

SHERXON INVEST QURILISH ONE MCHJ
рахбари Ш. Мухамедов

«O'ZAGROSUG'URTA»
AKSIYADORLIK JAMIYATI

+998 (71) 216 05 00 1186
www.agros.uz Toshkent Chilonzor 19 61/2

# ҚУРИЛИШ ТАВАККАЛЧИЛИКЛАРИНИ СУҒУРТАЛАШ БЎЙИЧА 11-05/11-11000401 - СОНЛИ СУҒУРТА ПОЛИСИ

| | | |
|---|---|---|
| 1. Суғурта қилдирувчининг Номи | "SHERXON INVEST QURILISH ONE» МЧЖ | |
| 2. Қурилиш объекти | **Фаргона вилояти Бешарик тумани Кияли МФЙ Шодакозик массивида "Яшил макон" дастури буйича 600 гектар ер майдонини сугориш учун 2 дона сув кудуги кавлаш** | |
| 3. Қурилиш олиб борилаётган Манзил | **Фаргона вилояти Бешарик тумани Кияли МФЙ** | |
| 4. Қурилиш бахоси | **499 500 000 (турт юз кирк туккиз миллион беш юз минг) сўм.** | |
| 5. Суғурталанган хавфлар (қалтисликлар)ва суғурта пуллари | -Ҳар қандай кутилмаган тасодифий ва тўсатдан рўй берувчи ходисалар натижасида суғурталанган мулкнинг шикастланишига ёки нобуд бўлишига сабаб бўлувчи ҳақикатда содир бўладиган вокеалар, яъни ёнгин, чақмоқ, портлаш, учувчи аппаратларнинг қулаши, ўз-ўзидан ёниш, ўғирлик ва учинчи шахсларнинг касддан содир этган ҳаракатлари, сув тошкини ва сув босиши, кувурларнинг ёрилиши, бўрон, довул, зилзила, сел, кўчки, тупрокнинг чўкиши, ўпирилиш, кулаш, киска туташув, ортиқча кучланиш, электр ёйлари, машина ва механизмлар, қурилиш материаллари ва конструкцияларнинг қулаб тушиши, нуксонли материаллар ва конструкцияларни онгсиз равишда қўллашдан кўрилган зарар, қурилиш-монтаж ишларини амалга оширишда учинчи шахслар олдида фуқаролик жавобгарлигининг пайдо бўлишидан. | Сугурта пули<br>**399 600 000 (Уч юз туксон туккиз миллион олти юз минг) сўм**<br>0,5% **1 998 000 (Бир миллион туккиз юз туксон саккиз минг) сум** |
| *Шу жумладан:* | Моддий зарар | **399 600 000 (Уч юз туксон туккиз миллион олти юз минг) сўм** |
| | Жавобгарлик | |
| 6. Суғурта полиси муддати | **2022йил «07» сентябрдан 2023 йил «06» сентябргача** | |
| 7. Суғурта мукофоти: | **1 998 000 (Бир миллион туккиз юз туксон саккиз минг) сум** | |
| 8. Шартсиз Франшиза | 15% 59 940 000 (эллик туккиз миллон туккиз юз кирк минг) сўм.<br>(рақам ва ёзув билан) | |

| | |
|---|---|
| **"Ўзагросуғурта" АЖ**<br>**Фаргонав вилоят**<br>(филиал)<br>**Бешарик Сугурта Маркази**<br>(туман (шаҳар) номи)<br>менежер ________ **И.Муллаев**<br>( имзо ) ( Ф.И.Ш.) | **Суғурта қилдирувчи:**<br>Суғурта қоидаси билан танишдим, полисни асл нусхасини олдим.<br>**2022 й. "07" сентябр**<br>**Ш. Мухаммедов** ________<br>( Ф.И.Ш.) ( имзо) |

"O'ZAGROSUG'URTA" AKSIYADORLIK JAMIYATI FARG'ONA VILOYATI FILIALI "BESHARIQ" SUG'URTA MARKAZI

UA 0030176

# FARG‘ONA VILOYATI BESHARIQ TUMANI HOKIMI
# FARMOYISHI

2022 - yil 10 - may 95-11-153-F/22 Beshariq tumani hokimligi

**Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga mablag‘ ajratish to‘g‘risida**

**O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 28-, 126-moddalariga va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 25-moddalariga asosan,**

1.Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati kengashining 2022-yil 20-apreldagi VI-43-52-11-0-K/22-sonli qarori asos uchun qabul qilinsin.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-5-fevral kunlari viloyatga tashrifi yakuni bo‘yicha tasdiqlangan majlis bayoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-fevraldagi 109-sonli qarori ijrosini ta’minlash, jumladan, Beshariq tumani, Qiyali MFY hududidagi Shodoqoziq massividagi 600 gektar yer maydonlarini o‘zlashtirish bo‘yicha bajariladigan ishlar uchun viloyat mahalliy byudjetining 2022-yil yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan 500,0 (besh yuz) million so‘m mablag‘ Beshariq tumani mahalliy budjetiga o‘tkazib berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.Tuman hokimligi moliya bo‘limi (X.Isroilov) viloyat hokimining mazkur farmoyishi bilan ajratilgan 500,0(besh yuz) million so‘m mablag‘ni belgilangan tartibda tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga ajratilishini ta’minlasin.

G‘aznachilik bo‘linmasi (Sh.Xayitov)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

4.Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (N.Nasipov)ga mazkur farmoyish bilan ajratilgan mablag‘ni maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlasin.

5.Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish vazifasi tuman hokimining oʻrinbosarlari T.Samatov, I.Eshmatov va Oʻ.Ergashevlar zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi** **R.K.Jo'rayev**

# FARG'ONA VILOYATI BESHARIQ TUMANI HOKIMI QARORI

2022 - yil 25 - iyun 139-11-153-Q/22 Beshariq tumani hokimligi

**Tumandagi Qiyali MFY, Shodaqoziq qishlog\`ida tashkil qilingan "Yashil makon" yer maydoniga 2 dona sug\`orish tik qudug\`ini arxitektura va loyiha smeta hujjatlarini shakllantirish to\`g\`risida**

Daraxt, butalar va yashil hududlarni muhofaza qilish hamda ularning maydonlarini kengaytirish, ushbu sohada mas'ul tashkilotlar faoliyatini yanada samarali tashkil etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi «2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5863-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PF-46-sonli Farmoni hamda Farg'ona viloyati hokimining 2022-yil 10-yanvardagi 10-11-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida hamda O\`zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to\`g\`risida"gi Qonunning 6-,25-moddalariga asosan,

**QAROR QILAMAN**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida''gi PF-46-sonli Farmoni hamda Farg'ona viloyati hokimining 2022-yil 10-yanvardagi 10-11-0-Q/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Tuman hokimining o\`rinbosarlari T.Samatov, I.Eshmatov, tuman Qurilish bo\`limi (Sh.Tursumatov), tuman Moliya bo\`limi (H.Isroilov), tuman

Obodonlashtirish boshqarmasi (N.Nasipov)ga Qiyali MFY, Shodaqoziq qishlog`idagi “Yashil makon” maydoni hududida ekilgan ko`chatlarni sug`orish tizimini yaxshilash maqsadida 2 dona tik ichimlik suv quduqlarni kovlash ishlarini amalga oshirish bo`yicha ART, ekspertiza xulosalari, loyiha smeta hujjatlari shakllantirish va belgilangan tartibda mablag` ajratish bo`yicha choralar ko`rsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o`rinbosari I.Eshmatov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **R.K.Jo'rayev**